



2020 yil avgust oyi holatiga ko'ra

Ko'ngillilar dasturida ishtirok etish maqsadida viza olishga kerakli hujjatlar haqida eslatma

Umumiy eslatma:

- Barcha arizachilar arizalarini **shaxsan** topshirishlari shart. **Hujjat topshirish uchun qabulga yozilish faqat internetda, elchixonaning qabulga ro'yxatga olish tizimi orqali amalga oshiriladi**
- Viza arizasi qaror qabul qilish maqsadida **Germaniyadagi xorijliklar masalalari bo'yicha mas'ul idora (Ausländerbehörde)** ga yuboriladi. Shu sababdan yashash ko'zda tutilayotgan **manzil** (ko'cha, pochta indeksi va joy nomi) ariza blankida **to'liq** ko'rsatilishi lozim. Germaniya hududiga kirganingizdan keyin, bu haqda xorijliklar masalalari bo'yicha turar joyingizdagi mas'ul idoraga bevosita xabar qilishingiz lozim. Ushbu idora Germaniyada vaqtincha qolish bo'yicha yakunlovchi qarorni qabul qiladi.
- **Federal ko'ngillilar dasturi (BFD):** shartnomangiz Siz, oila va ijtimoiy vazifalar bo'yicha Federal vazirlik (BAFZA), shuningdek ish joyi tomonidan imzolangan bo'lishi lozim. Federal ko'ngillilar dasturida ishtirok etish yosh chegaralanmagan
- **Ko'ngilli yoshlar dasturi (Freiwilliges Soziales Jahr (FSJ) yoki Freiwilliges Ökologisches Jahr (FÖJ))**da ishtirok etish uchun: shartnomangiz Siz, oila va ijtimoiy vazifalar bo'yicha Federal vazirlik (BAFZA), shuningdek ish joyi tomonidan imzolangan bo'lishi lozim. Ko'ngilli yoshlar dasturida ishtirok etish uchun yoshingiz 27ga to'lmagan bo'lishi kerak
- Arizangiz borasida ijobiy qaror qabul qilinsa, elchixona xodimlari Siz bilan bog'lanadi. Rad javoblari faqat yozma ravishda yuboriladi yoki arizachi tomonidan shaxsan olib ketilishi mumkin
- Tajribaga muvofiq viza arizasini **ko'rib chiqish muddati 4 – 6 haftani** tashkil etadi va ba'zi xollarda muddat farqlanishi mumkin
- **Viza badali 75 yevroni** tashkil etadi va to'lov ariza topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida** (amaldagi kurs bo'yicha) amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart



Ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

Eslatma: arizaga taaluqli hujjatlarning **DIN A4 formatidagi** nusxalarini quyidagi tartibda **sahifalarini biriktirmagan xolda ikkita to'liq to'plamga** ajrating. Uchinchi to'plam huddi shu tartibda, hujjatlarning aslidan iborat bo'lishi lozim. Hujjatlarning asli viza bo'limi tomonidan Sizga qaytariladi.

- Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va imzolangan 2 ta viza ariza blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat. (2ta fotosurat ariza blankiga yelimgan bo'lishi kerak).** Blankni elchixonaning internetdagi www.taschkent.diplo.de web-sahifasidan olishingiz mumkin.
- Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq **imzolangan izoh**
- kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan pasportingiz** va uning shaxsiy ma'lumotlar kiritilgan sahifasidan nusxa
- Ko'ngilli sifatida Germaniyada bo'lishingiz haqida **to'liq va har taraflama imzolangan** shartnoma. Shartnomada turar joy va yeb-ichish haqida ma'lumot bo'lmasa, u xolda yashash harajatlarini qoplash uchun yetarli mablag' mavjudligi haqida qo'shimcha hujjat
- Manzil va bog'lanish manbaalari ko'rsatilgan ketma ketligi uzilmagan, jadval shaklidagi **tarjimai xol. Agar hujjat nemis tilida bo'lmasa tarjimasini ilova qiling**
- Arizachi tomonidan yozilgan va imzolangan safarni asoslovchi xat.** Unda ko'ngillilar dasturida ishtirok etishdan maqsad aniq ifodalanishi lozim. Agar xat nemis tilida bo'lmasa, uning tarjimasini ilova qiling
- Nemis tili bo'yicha A1 boshlang'ich bilim darajasi haqida tasdiqnoma** yoki arizachining tilni bilishi viza jarayonida kunlik mavzularning biri haqida suhbat orqali ham tekshirilishi mumkin. Nemis tilini bilmasangiz, avvaliga til bo'yicha bilimlar shart emasligi, uni Germaniyaga kelgandan so'ng til kurslarida ishtirok etish orqali o'rganishingiz mumkinligi haqida ish joyining yozma tasdiqnomasi
- Kasbiy malaka va ta'lim haqida tasdiqnoma**, masalan o'qish joyidan ma'lumotnoma, diplom, shaxodatnoma
- Tibbiy sug'urta polisi.** Tibbiy sug'urta viza berilishidan oldin olib kelinishi ham mumkin. Qonunan majburiy sug'urta Germaniyaga kirib kelib, volontyorlik xizmati boshlangandan keyin kuchga kiradi. Germaniyaga ertaroq kirilsa, shartnoma va qonunan majburiy sug'urta kuchga kirish sanasigacha amal qiladigan shaxsiy tibbiy sug'urta taqdim etilishi lozim.